Iqtisodiyotda yashil innovatsiyalarni joriy etishni konseptual asoslari.....	829
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna , kafedra dotsenti	
Цифровизация страховых претензий является основным механизмом развития страховой отрасли.....	835
Узакова Камола Бехзодовна , ассистент кафедры	



O'zbekiston va MDH mamlakatlari soliq tizimining qiyosiy tahlili	839
Bobomurotova Manzura Panji qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Soliq ma'muriyatchiligi tizimida samarali soliq nazoratini tashkil etish masalalari	845
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li , Bobomurotova Manzura Panji qizi , mustaqil tadqiqotchilar	
Banklarda aktivlar portfellarining zamonaviy holati	851
Murodova Mohigul Chori qizi , katta o'qituvchi	
Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarning o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari	855
Otajonova Maftuna Sultonmurodovna , tayanch doktorant	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish	859
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna , p. f. n.	
Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida	863
Sheraliyeva Saida Azatovna , katta o'qituvchi	
Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi	868
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich , tayanch doktorant	
O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari	875
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions	879
Ergasheva Malikakhon , Independent researcher	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida	884
Amanov Otabek Amankulovich	
Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida	888
Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li , tayanch doktorant	
Nodavlat notijoart tashkilotlarida maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish	893
Ne'matov Oybek Ismatullayevich , PhD	
Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish	897
Saidaxmedova Nodira Iloxomova , DsC	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования	902
Bokhodir Isroilov , Doctor of Economics, Boburshokh Ibragimov , PhD	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili	909
Raximova Shaxlo Rajapboyevna , mustaqil tadqiqotchi	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati	915
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish	922
Maxmudov Anvarjon Maxmudovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili	930
Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи	935
Зайналов Жахонгир Расулович , профессор, Бердикулов Журабек , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, auditi va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar	938
Nosirov Ilhom Abbosovich , i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
Холмирзаева Феруза Абдуллаевна	



O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATINING EKONOMETRIK TAHLILI

Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich
Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining investitsion faolligini yaxshilashga oid tahlillar amalga oshirilgan. Muhim ko'rsatkich sifatida tijorat banklarining investitsion faoliyatga yo'naltirgan mablag'lariga tijorat banklarining boshqa ko'rsatkichlari ta'sirlari korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tahlil qilingan hamda eng kichik kvadratlar usuli orqali ekonometrik modellashtirish amalga oshirilgan. Ekonometrik modellashtirish natijalari bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: investitsion faoliyat, tijorat banki, plastik karta, depozit, korrelyatsiya koeffitsiyenti, ekonometrik model, eng kichik kvadratlar usuli, milliy valyuta, to'lov terminali.

Abstract: The article analyzes the improvement of investment activity of commercial banks. As an important indicator, the effects of other indicators of commercial banks on the funds of commercial banks for investment activities were analyzed through the correlation coefficient, and econometric modeling was carried out using the method of least squares. Conclusions and suggestions are given on the results of econometric modeling.

Key words: investment activity, commercial bank, plastic card, deposit, correlation coefficient, econometric model, least squares method, national currency, payment terminal.

Аннотация: В статье анализируется совершенствование инвестиционной деятельности коммерческих банков. В качестве важного показателя влияние других показателей коммерческих банков на средства коммерческих банков на инвестиционную деятельность анализировалось через коэффициент корреляции, а эконометрическое моделирование проводилось с использованием метода наименьших квадратов. Сделаны выводы и предложения по результатам эконометрического моделирования.

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, коммерческий банк, пластиковая карта, депозит, коэффициент корреляции, эконометрическая модель, метод наименьших квадратов, национальная валюта, платежный терминал.

KIRISH

Tijorat banklarining maqsadi o'z nomidan ma'lumki, maqsadi foyda olishga qaratilgan tijoriy faoliyatni amalga oshirish va shu asosda maksimal samaradorlikka erishishdir. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etilishi mamlakatdagi amaldagi qonunchilik talablari va mezonlari asosida tashkil etiladi hamda qonunchilikda amalga oshirilishi ruxsat berilgan tijoriy faoliyatni amalga oshiradi. Amaliyotda tijorat banklari kreditlash, investitsion faoliyat, vositachilik xizmatlarini ko'rsatish, bank xizmatlarini ko'rsatish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha tijoriy faoliyatni amalga oshirishadi. O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining tashkil etilishi bank tizimining "Universal" modeliga asoslangan bo'lib, tijorat banklariga kreditlash hamda investitsion faoliyatni parallel amalga oshirishga ruxsat beriladi. Shu nuqtai nazardan tijorat banklarining asosiy faoliyati kreditlash bo'lishi bilan bir qatorda, ular investitsion faoliyatni amalga oshirishlari, xususan, investitsion loyihalarga investitsiya kiritish, kimmatli qog'ozlarni sotib olish, qimmatli qog'ozlar bo'yicha vositachilik qilish kabi investitsion faoliyatlarni amalga oshirishlari mumkin.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tijorat banklari investitsion faolligini oshirish masalasi, har qaysi davrda o'z dolzarbligini yo'qotmagan, shu tufayli ham mazkur yo'nalish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan hamda amalga oshirib kelinmoqda.

Bu borada quyidagi tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Matxey (2009) fikricha, monetar siyosat ko'p yillar davomida turli hil ko'rinishda bo'lgan. Monetar siyosat iqtisodiyotda inflyatsiyani jilovlash maqsadida pul taklifi va talabini tartibga solish jarayonida ko'rinish beradi¹.

Taylor (1998) ta'kidlashicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarning faoliyatlari monetar siyosat qoidalaridan foydalangan holda empirik tarzda tavsiflanishi mumkin. Oddiy tenglamalar bilan rasmiylashtirilgan bunday qoidalar markaziy banklarning iqtisodiy o'sish va inflyatsiya kabi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'lgan ta'sirini tavsiflaydi². Rasmiy ravishda qisqa muddatli foiz stavkalari, iqtisodiy o'sish va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni Teylor qoidasi yordamida aniqlash mumkin. Ammo ularning fikricha inflyatsiyani tartibga solishda Markaziy bankda yetarli darajada ta'sir vositalari mavjud bo'lsagina bu rejim o'z samarasini beradi³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muhim ko'rsatkich sifatida tijorat banklarining investitsion faoliyatga yo'naltirgan mablag'lariga tijorat banklarining boshqa ko'rsatkichlari ta'sirlari korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tahlil qilingan hamda eng kichik kvadratlar usuli orqali ekonometrik modellashtirish amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion faoliyat tijorat banklarining kreditlashdan keyingi eng yirik faoliyatidir. Mazkur faoliyatning o'rni va ahamiyati ham makroiqtisodiy, ham mikroiqtisodiy nuqtai nazardan kundan kunga ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan mazkur faoliyatning rivojlanishi va taraqqiyotini o'rganish, uning kelgusidagi istiqbolini tadqiq etish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etishini tadqiqotimizning yuqoridagi bob va paragraflarida e'tirof etib o'tdik. Tadqiqotimizning mazkur qismida O'zbekistondagi tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlilini amalga oshiramiz hamda modelini ko'rib o'tamiz. Tadqiqotimizda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 18 ta tijorat bankining statistik ma'lumotlari asosida amalga oshiramiz.

Tahlilda tijorat banklarining investitsion faoliyati natijalari sifatida ularning qimmatli qog'ozlar portfeli hamda amalga oshirilgan repo operatsiyalarining jami summasining yig'indilarining jamisi olingan. 1-ildavda keltirilgan tijorat banklarida repo operatsiyalari amalga oshirilmaganligi, qimmatli qog'ozlar portfeli mavjud emasligi yoki salmog'i juda kamligi sababli tahlil uchun olinmadi.

Tahlilimizning dastlabki qismida ilovada keltirilgan ma'lumotlardan modellashtirishni amalga oshirish uchun yaroqli bo'lgan ko'rsatkichlarni tanlab olamiz. Amalga oshiradigan tahlilimizda natijaviy belgi sifatida tijorat banklarining jami investitsion faoliyat ko'rsatkichlarini olamiz. Jami investitsion faoliyat ko'rsatkichlari qimmatli qog'ozlar portfeli va amalga oshirilgan REPO amaliyotlari jamisi ekanligini yuqorida aytib o'tdik. Mazkur ko'rsatkichning o'zgarishiga boshqa omillarning ta'siri qanchalik darajada kuchli yoki kuchsiz ekanligini aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlilni amalga oshiramiz. Korrelyatsiya ko'effitsiyenti biror omilning boshqa bir omilning o'zgarishiga qanchalik darajada ta'sir ko'rsatishini ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanib, u -1 va 1 oralig'ida o'zgaradi. Agar ko'rsatkich 0 va 1 oralig'ida bo'lsa, omil belgi natijaviy belgi o'zgarishiga to'g'ri, -1 va 0 oralig'ida bo'lsa, omil belgi natijaviy belgi o'zgarishiga teskari ta'sir ko'rsatishini ifodalaydi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti qanchalik 1 yoki -1 yaqin bo'lsa, bog'liqlik shu darajada kuchli bo'ladi⁴. Tahlillarni davom ettirish uchun omillarni tanlashda korrelyatsiya koeffitsiyentining 0,7 dan yuqori yoki -0,7 dan kichiklarini tanlab olishimiz zarur, chunki mazkur holda omillar natijaviy belgiga kuchli ta'sir ko'rsatayotganligini ifodalaydi. Omillar orasidan eng kuchli bog'liqlikka ega bo'lganlarini ajratib 1-jadvalda tasvirlaymiz.

1 Koshy Mathay, September 2009, "Back to basics: What is monetary policy?" Finance & Development, pp. 42-63

2 Taylor J.B. "An historical analysis of monetary policy rules" NBER Working Paper 6768, 1998. – 53 pages.

3 Absalamov A.T. Interest rate channel of monetary policy transmission mechanism in Uzbekistan-VECM Approach// (IJMT) ISSN: 2249-2496, International Journal of Research in Social Sciences, Volume 10, Issue 1 (January 2020). 165-173 pages.

4 Ulugbekovich, A. U. (2023). Solving Pension System Problems through Econometric Modeling. INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES, 2(5), 36-39.



1-jadval: O'zbekistonda tijorat banklari investitsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya matritsasi

Bank xizmatlari markazlari soni (BXMS)	Plastik karta soni (PKS)	Terminal soni (TS)	Milliy valyutadagi depozitlar (MVD)	Yuridik shaxslar depozitlari (milliy valyutadagi) (YUSHMVD)	Jami investitsion faoliyat (JIF)	Ko'rsatkichlar
1,0000	0,4545	0,7020	0,3862	0,5227	0,7898	Bank xizmatlari markazlari soni (BXMS)
	1,0000	0,8651	0,9163	0,6804	0,6909	Plastik karta soni (PKS)
		1,0000	0,8390	0,7383	0,8025	Terminal soni (TS)
			1,0000	0,8297	0,6692	Milliy valyutadagi depozitlar (MVD)
				1,0000	0,7828	Yuridik shaxslar depozitlari (milliy valyutadagi) (YUSHMVD)
					1,0000	Jami investitsion faoliyat (JIF)

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.

Jadvaldan ko'rinadiki, investitsion faoliyat (JIF) bilan eng kuchli korrelyatsiyaga terminal soni (TS) (0,8025) egadir. Undan keyin mos ravishda bank xizmatlari markazlari soni (BXMS) (0,7898), milliy valyutadagi yuridik shaxslar depozitlari (YUSHMVD) (0,7828) hajmlari bog'langandir. Mazkur uch omilning investitsion faoliyat bilan bog'liqlik darajasi kuchlidir. Plastik karta soni (PKS) va milliy valyutadagi depozitlar (MVD) summasining investitsion faoliyat bilan bog'liqlik ko'rsatkichlari yetarli darajada kuchi va ahamiyatligi nuqta nazardan ularni ham tahlil uchun qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Mazkur omillarning barchasi investitsion faoliyatga natijalari o'zgarishlariga to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Tahlilning navbatdagi qismida tanlangan ko'rsatkichlarning tasviriy statistikasi tahlilini ko'rib o'tamiz (2-jadval).

Ma'lumotlarning tasviriy statistikasidan ko'rinadiki, mazkur tadqiqotimizda kuzatuvlar soni (tijorat banklari soni) 18 tani tashkil qiladi. JIF ning eng past miqdori 10, eng yuqori miqdori 2844,8 ni tashkil etgani holda, bank xizmatlari markazlari soni (BXMS) ning minimumi 2 tani, maksimumi 244 tani tashkil etgan.

2-jadval: 2020-yilning dekabr oyi holatiga O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatini ayrim ko'rsatkichlarining tasviriy statistikasi

Ko'rsatkich	O'rtacha	Mediana	Minimum	Maksimum
JIF	588,55	343,30	10,000	2844,8
BXMS	65,812	41,000	2,0000	244,00
PKS	1088779	715894	34513	3714964
TS	16829,0	13720,0	187,00	48742,0
MVD	3114,8	2569,8	136,90	8759,3
YuShMVD	2034,0	1971,2	113,50	4497,5
Ko'rsatkich	Standart chetlanish	Variatsiya	Asimmetriya	Ekssess
JIF	685,16	1,1641	2,0947	4,5664
BXMS	67,580	1,0269	1,5377	1,2613
PKS	1,0767e+006	0,98889	1,2278	0,34562
TS	12949,	0,76943	0,92110	0,075195
MVD	2262,4	0,726 34	1,0420	0,31560
YuShMVD	1192,9	0,58647	0,52730	-0,48222

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.

Plastik kartalarining (PKS) minimum soni 34513 tani, maksimum soni esa 3714964 tani tashkil etgan. Terminallarning (TS) minimum soni 187 tani, maksimum soni esa 48742 tani tashkil etgan. Milliy valyutadagi depozitlar (MVD)ning minimum hajmi 136,9 ni maksimum hajmi esa 8759,3 ni tashkil etgan.



Tadqiqotning navbatdagi bosqichida tijorat banklarining investitsion faoliyati kshrsatkichlariga omillar ta'sirining ekonometrik modellari eng kichik kvadratlar usulini qo'llash orqali quramiz hamda eng to'g'ri modelni tanlab olamiz.

Chiziqli funksiyaga qurilgan modelda tavsiflaymiz. Ya'ni umumiy holdagi formula quyidagicha:

$$Y = a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n + \text{const} + e \quad (1)$$

Bu yerda:

Y – natijaviy belgi;

$a_1, a_2 \dots a_n$ – erkli o'zgaruvchilar oldidagi koeffitsiyentlar;

$x_1, x_2 \dots x_n$ – erkli o'zgaruvchilar;

const – Y ning boshlang'ich qiymati;

e – hisobga olinmagan qism.

Modellashtirishda ko'rsatkichlarning statistik jihatdan ahamiyatligini ta'minlash maqsadida barcha ko'rsatkichlarning natural logarifmlangan qiymatlaridan foydalanamiz.

Mazkur modelning induktiv tahliliga ko'ra, yuqoridagi modelning statistik jihatdan ahamiyatligi ifodalovchi ko'rsatkich (F-statistika) 0,05 dan kichik, shu sababli ham mazkur model statistik jihatdan ahamiyatli, mustaqil o'zgaruvchi yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari hajmining natural logarifmlangan qiymati (Ln_YUSHMVD) ning bog'liq o'zgaruvchiga ta'sirini ko'rsatuvchi koeffitsiyentlar ham 0,05 dan kichik, plastik kartalar sonining natural logarifmlangan qiymati ham 10 foizlik ishonchlikda statistik jihatdan ahamiyatli.

3-jadval: O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ochilgan plastik kartalar soni (PKS) va yuridik shaxslar milliy valyutadagi depozitlari (YUSHMVD) hajmi o'zgarishlarining tijorat banklari investitsion faoliyati (JIF)ga ta'sirining regressiya tenglamasi (bog'liq o'zgaruvchi Ln_JIF)

Omillar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	P-qiymat	Ishonchlik darajasi
const	-7,53710	1,74905	-4,309	0,0006	***
Ln_YuShMVD	0,962469	0,309559	3,109	0,0072	***
Ln_PKS	0,456435	0,221718	2,059	0,0573	*
Bog'liq o'zgaruvchi o'rtachasi		5,672717	Standart og'ish		1,419164
Qoldiqlar kvadratlari yig'indisi		6,000230	Standart xatolik		0,632468
R-kvadrat		0,824752	Moslashgan R-kvadrat		0,801385
F-statistika (4, 34)		35,29642	P-qiymat (F)		2,13e-06
Logorifmik haqiqatga yaqinligi		-15,65373	Akaike mezoni		37,30746
Shvarts mezoni		39,97857	Xanna-Kuin mezoni		37,67577

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.

Tuzilgan tenglamaning determinatsiya koeffitsiyenti (Moslashgan R-kvadrat) 0,8813 ga teng bo'lib, modelimiz tijorat banklari investitsion faoliyatga omillar ta'sirining 80,13 foizini tushuntirib bera oladi. Biroq mazkur modelimiz geteroskedastiklik testiga tekshirilganda mavjudlik aniqlandi, shu sababli geteroskedastiklikni bartaraf etuvchi modellashtirish amalga oshirildi (4-jadval)

4-jadval: O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan ochilgan plastik kartalar soni (PKS) va yuridik shaxslar milliy valyutadagi depozitlari (YUSHMVD) hajmi o'zgarishlarining tijorat banklari investitsion faoliyati (JIF)ga ta'sirining regressiya tenglamasi, geteroskedastiklik bartaraf etilgan (bog'liq o'zgaruvchi Ln_JIF)

Omillar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	P-qiymat	Ishonchlik darajasi
const	-7,88733	1,86016	-4,240	0,0007	***
Ln_YuShMVD	0,908293	0,317244	2,863	0,0118	**
Ln_PKS	0,511356	0,231616	2,208	0,0432	**
Kvadrat chetlanishlar yig'indisi		5,672717	Modelning standart xatoligi		1,596076
R-kvadrat		0,817982	Moslashgan R-kvadrat		0,793713
F-statistika (4, 34)		33,70470	P-qiymat (F)		2,82e-06
Logorifmik haqiqatga yaqinligi		-32,31586	Akaike mezoni		70,63172
Shvarts mezoni		73,30284	Xanna-Kuin mezoni		71,00003

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.



4-jadvalda aks etgan modelimizda geteroskedastiklik bartaraf etildi.

Modelning induktiv tahlili. Modelda Fisher-Snedekor F-kriteriysining qiymati 0,05 dan kichik, shuning uchun model statistik jihatdan ahamiyatli. Olingan mustaqil o'zgaruvchilar ($Ln_YUSHMVD$ va Ln_PKS)ning statistik jihatdan ahamiyatligi Studentning t-kriteriysi bo'yicha tekshirilganda 0,05 dan kichikligi va statistik jihatdan ahamiyatligi tasdiqlandi. Demak mazkur model induktiv tahlil bo'yicha qo'llash uchun yaroqli.

Modelning interpretatsion tahlili:

$$Ln_JIF = -7,88733 + 0,908293Ln_YuShMVD + 0,511356Ln_PKS + e \quad (2)$$

Bu yerda:

Ln_JIF – Jami investitsion faoliyatning natural logarifmlangan qiymati;

$Ln_YUSHMVD$ – Yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarining natural logarifmlangan qiymati;

Ln_PKS – plastik kartalar sonining natural logarifmlangan qiymati;

e – hisobga olinmagan omillar.

Tuzilgan tenglamaning determinatsiya koeffitsiyenti 0,7937 ga teng bo'lib, hosil qilingan model orqali tijorat banklari investitsion faoliyatining 79,37 foizini tushuntirish mumkin. Korrelyatsiya koeffitsiyentiga mos ravishda, modelning mustaqil o'zgaruvchilari to'g'ri bog'lanishda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

$Ln_YUSHMVD$ ning oldida turgan koeffitsiyent (0,908293) – boshqa omillar o'zgarmas bo'lganida, yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarining 1 (bir) foizga ko'payishi(kamayishi), tijorat banklarining investitsion faoliyat natijalarining 0,91 foizga ko'payishi(kamayishi)ga olib keladi. Ln_PKS ning oldida turgan koeffitsiyent (0,511356) – boshqa omillar o'zgarmas bo'lganida, plastik kartalar sonining 1 (bir) ko'payishi (kamayishi), tijorat banklarining investitsion faoliyat natijalarining 0,51 foizga ko'payishi (kamayishi)ga olib kelishini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra quyidagilarni hulosa sifatida ta'kidlash o'rinli:

O'zbekistonda tijorat banklari investitsion salohiyatini oshirishda bank tizimining barcha ko'rsatkichlari kompleks ta'sir ko'rsatadib bu borada ayniqsa, yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari hajmi hamda muomaladagi plastik kartalar soni eng muhim o'rin tutishini tahlillar ko'rsatib turibdi;

Ekonometrik tahlil natijalaridan ko'rinadiki, yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlar hajmini oshirishni rag'batlantirish orqali tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish imkoniyatlari mavjud;

Korrelyatsiya koeffitsiyenti natijalaridan ko'rinadiki, bank xizmatlari markazlari sonining oshirilishi, to'lov terminallari sonining ko'paytirilishi orqali ham tijorat banklarining investitsion faolligini yaxshilash mumkin. Bu borada kelgusida kengroq hamda chuqur ekonometrik tahlil va tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Koshy Mathay, September 2009, "Back to basics: What is monetary policy?" Finance & Development, pp. 42-63.
2. Taylor J.B. "An historical analysis of monetary policy rules" NBER Working Paper 6768, 1998. – 53 pages.
3. Absalamov A.T. Interest rate channel of monetary policy transmission mechanism in Uzbekistan-VECM Approach// (IJMT) ISSN: 2249-2496, International Journal of Research in Social Sciences, Volume 10, Issue 1 (January 2020). 165-173 pages.
4. Ulugbekovich, A. U. (2023). Solving Pension System Problems through Econometric Modeling. INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES, 2(5), 36-39.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining statistik byulleteni ma'lumotlari.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.